

**ABOUT THE ANCIENT BELIEFS AND RITUALS OF THE USTRUSHANA HERDERS****Sirojiddin Sharofov***doctoral student**Jizzakh State Pedagogical University**Jizzakh, Uzbekistan***ABOUT ARTICLE**

Key words: history of Uzbekistan, Jizzakh, Ustrushana, Morguzar, Nurata, cultural development, religion, ethnicity, tradition, totemism, Farn, cattle, sheep, milk, animal.

Received: 30.05.25**Accepted:** 01.06.25**Published:** 03.06.25

Abstract: The article presents the author's opinions on the ancient beliefs and rituals of the peoples of Ustrushana, one of the most ancient historical regions of our region. Based on a number of archaeological and ethnographic data, it also emphasizes that the ancient spiritual life of the oasis cattle breeders was very rich in various customs and rituals.

УСТРУШНА ЧОРВАДОРЛАРИНИНГ QАДИМӢ E'TIQOD VA MAROSIMLARI XUSUSIDA**Sirojiddin Sharofov***JDPU tayanch doktoranti**Jizzax, O'zbekiston***МАҚОЛА НАҚИДА**

Kalit so'zlar: O'zbekiston tarixi, Jizzax, Ustrushana, Morguzar, Nurota, madaniy taraqqiyot, din, etnos, urf-odat, totemizm, Farn, chorva, qo'y, sut, hayvon.

Annotatsiya: Ushbu maqolada muallifning o'lkmizning qadimgi tarixiy viloyatlaridan biri hisoblangan Ustrushona xalqlarining qadimiy e'tiqod va marosimlari xususidagi fikr-mulohazalari bayon qilingan. Shuningdek, unda voha chorvadorlarining qadimdan shakllangan ma'naviy hayoti turli urf-odat va marosimlarga juda boy bo'lganligi bir qancha arxeologik va etnografik ma'lumotlar asosida yoritib berilgan.

О ДРЕВНИХ ВЕРОВАНИЯХ И ОБРЯДАХ УСТРУШАНСКИХ СКОТОВОДОВ**Сирожиддин Шарофов***аспирант базовой докторантуры ДжГПУ**Джиззакский, Узбекистан*

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: история Узбекистана, Джизак, Уструшана, Моргузар, Нурага, культурное развитие, религия, этнос, традиция, тотемизм, Фарн, скот, овцы, молоко, животное.

Аннотация: В статье изложены мнения автора о древних верованиях и обрядах народов Уструшаны, одного из древнейших исторических регионов нашего края. На основании ряда археологических и этнографических данных в нем также подчеркивается, что древняя духовная жизнь скотоводов оазиса была весьма богата различными обычаями и ритуалами.

Shaxsning jamiyatda o‘z o‘rni va vazifalarini tushunib olishida, hayotiy mo‘ljallarini o‘zining maqsadi va ehtiyojlariga, imkoniyatlariga xos tarzda to‘g‘ri belgilashida ijtimoiy fanlar, xususan tarix fani muhim o‘rin tutadi. Xalqimizning insoniyat sivilizatsiyasiga qo‘sghan munosib hissasi, jahon xalqlari orasida tutgan o‘rniga baho berishda, uni boy hayotiy va tarixiy tajribalaridan foydalanishda, oliyjanob fazilatlari va an’analarini o‘rganish hamda boyitishda O‘zbekiston tarixi fani beqiyos katta ahamiyatga ega . Shuning uchun ham respublikamiz mustaqil taraqqiyot yo‘lini tanlagach, istiqlol davri kishisini kamol toptirish, unda yangicha dunyoqarashni shakllantirishda tarixga jiddiy e’tibor qaratilib kelinmoqda. Zero, tarix qadriyatlarni qayta tiklash va uni rivojlantirishda, milliy o‘zlikni anglash va yangi jamiyat qurishda ma’rifat quroli, ma’naviy-mafkuraviy mayoq bo‘lib xizmat qiladi .

Shu tufayli mazkur tarix eng qadimgi davrdan boshlab ko‘p ming yillar mobaynida ajdodlarimiz va xalqimiz kechmishi sifatida nafaqat o‘zbekistonlik, balki xorij olimlari tomonidan ham tan olinib o‘rganildi , tadqiq etildi va ayni paytda ham ushbu yo‘nalishdagi izlanishlar izchillik bilan davom ettirilmoqda. Tadqiqotlari izchil, uzviy ravishda davom ettirilishi kutilayotgan tarixiy o‘lkalar qatoriga qadimgi Ustrushona va uning shimoliy hamda shimoliy-g‘arbiy qismida joylashgan, mamlakatimizning iqtisodiy va siyosiy jihatdan eng muhim va asosiy viloyatlaridan biri Jizzax vohasi ham kiradi.

O‘lkamizning qadimgi tarixiy viloyatlaridan biri bo‘lgan Ustrushonaning Morguzar tizmasiga qarashli o‘nlab tog‘ vodiylari, Nurota tog‘i etaklari va Mirzacho’lga tutashib ketgan pasttekisliklar azaldan o‘zining o‘t-o‘lanlarga boy yaylovlari bilan mashhur bo‘lgan . Bunday tabiiy qulayliklar tufayli Ustrushonaning shimoliy va g‘arbiy qismi ham O‘rta Osiyoning boshqa dehqonchilik vohalari kabi qadimdan jadal o‘zlashtirilgan.

Olimlarning ta’kidlashicha, geografik muhit (tuproq, relyef, flora va faunasi, tabiat, issiqlik va hk.lar)ga xos xususiyatlar etnos ma’naviy madaniyatini shakllanishiga, uning ruhiyatiga ham ma’lum ma’noda ta’sir ko‘rsatadi. Bu esa, shubhasiz xalqlarga xos milliy xususiyatlar, urf-odatlar hamda rasm-rusumlarda namoyon bo‘ladi . Ta’kidlash lozimki, madaniy taraqqiyot natijasi

bo‘lgan sivilizatsiya o‘choqlarining paydo bo‘lishi tasodifiy hol bo‘lmasdan, ma’lum hududlar uchun xos bo‘lgan qonuniyatlar asosida yuz bergan voqelikdir. Madaniy mintaqalarning shakllanishida landshaft, xo‘jalik yuritish usullari, aholi nufuzi, etnik-madaniy omillar, ehtiyojlar xilma-xilligi, ma’naviy omillar (din, axloq, til, an’analar, urf-odatlar) ishtirok etadi va ular turli madaniy mintaqalarda chuqur iz qoldiradi.

Ibtidoiy jamiyatda diniy qarashlar qudratli xudolarga sig‘inish shaklida vujudga kelmagan. Odamlar ruhlarga, tabiat hodisalari (suv, olov, oy, quyosh va hk.lar)ga va mavjudotlar (ot, bug‘u, mushuk kabilalar)ga sig‘inganlar. Ibtidoiy din shakllari xilma-xil ko‘rinishga ega. Eng qadimgi diniy e’tiqodlardan biri, shubhasiz totemizm (Shimoliy Amerika hindulari tilida “ototem” – uning urug‘i degan ma’noni anglatadi). Odamlar jamoasi (urug‘, qabila)ning hayvon, o‘simglik yoki predmetlar bilan qon-qarindoshlik aloqalari mavjudligiga ishonishlarini totemizm o‘zida aks ettiradi . Bunday diniy tasavvurning asosiy xususiyati shundan iboratki, totem sifatida qabul qilingan hayvon, o‘simglik yoki predmetlar urug‘ yoki qabilaning ajdodi deb tan olinadi va uni tan olgan jamoa a’zolari qarindosh hisoblanadilar.

Ma’lumki, O‘rta Osiyo xalqlarida uy hayvonlarining barchasida alohida pir-homiylari bo‘lib, ular aksari musulmon avliyolari nomi bilan bog‘langan. Yilqini homiy piri –Qambar ota, qo‘yniki – Cho‘pon ota, tuyaniki – Oysil qora, qoramolniki – Zangiota, echkiniki esa Sajan ota bo‘lgan . Jumladan, 1927-yilda tarixchi olim V.Sh.Shishkin “Zangi ota” mozori haqida to‘xtalib, Zangi bobo taniqli shayx Sulaymon Hakim ota, ya’ni Ahmad Yassaviyning shogirdi ekanligiga ishora qiladi. Rivoyatlarda yozilishicha, Zangi bobo cho‘ponlar homiysi hisoblangan .

Ustrushona chorvador xalqlarining qadimiy e’tiqod va marosimlari xususida so‘z yuritilar ekan, etnografik ma’lumotlar har bir chorvadorning xo‘jaligida qadimdan qoramol saqlanganligidan darak beradi. Chorvador xonardonida mo‘l-ko‘lchilik va to‘kislik timsoli sifatida ularga atab alohida joy – og‘ilxonalar solingan . Chorvadorlar sigir tuqqanidan so‘ng uch kun o‘tgach, uning sutidan uvuz (og‘iz) tayyorlab, qo‘shnilar, yaqin qarindoshlar va oila a’zolarini siylaganlar. Ushbu taom tanovvul qilinishidan oldin xonodon egalariga qut-baraka, sog‘lik tilab duoyi fotiha qilinfgan.

Qadimgi Ustrushonalikkar yomon ko‘zga ishonganlar. Chorva xo‘jaligidagi yangi tug‘ilgan bo‘taloq, qulun, buzoq va qo‘zilar notanish nigohlardan yashirilgan. Jumladan, bo‘taloq qo‘rada ikki hafta o‘zga nigohlardan yashirilib, keyinroq uning bo‘yniga ola-bula arqon bog‘lab qo‘yilgan. Ba’zan qora yalpoq, yumaloq toshning o‘rtasi teshilib, undan tumor yasab, bo‘taloqning bo‘yniga osib qo‘yishgan. Yana ba’zida hayvonning boshiga ukkining pati qistirilgan. Maxsus uchburchak tumorlar yasalib, ichida yettita qoratosh, qog‘ozga esa arabcha bitilgan duolar solinib, o‘sha hayvonning bo‘yniga taqishgan.

Ustrushonaliklarda ham mashhur hind eposi “Mahobxarata”da keltirib o‘tilgan ho‘kiz (qora mol)ga sig‘inish odatlariga amal qilingan . Qoramol – ho‘kizni ilohiylashtirish qadimdan mavjud bo‘lgan. Xususan, odam ho‘kiz – tanasi ho‘kiz, yuzi odam tasvirining ko‘plab uchrashi O‘rtal Sirdaryobo‘yi xalqlarining yirik shoxli hayvonlarni ilohiylashtirisi bilan bog‘liq an’anaviy marosimlaridan biri ekanligining isbotidir .

Shu o‘rinda ta’kidlash o‘rinlik, Ustrushona chorvadorlari xo‘jaligida qoramollar soni unchalik ko‘pni tashkil etmagan. Bu narsa ko‘p sonli qoramollarga ozuqa yig‘ish muammozi bilan bevosita bog‘liqidir. Tog‘li mintaqalarda yilqi, qolgan boshqa hududlarda esa qo‘ychilik chorvador xo‘jaliklarga katta foyda keltirgan. Chunki, qo‘ylarni qishin-yozin oyoqlatib boqish mumkin bo‘lgan, ular uchun qishga ko‘p ozuqa to‘plashmagan. Shunga qaramay, “yetti xazinaning biri”, “oilaning bakovuli” hisoblangan qoramol – sigir o‘rganilayotgan hududda yashovchi har bir xo‘jalikning bisotida uchrashi kuzatiladi.

Mintaqada chorva mollarini ilohiylashtirish bilan bog‘liq totemistik qarashlar haqida so‘z borar ekan, chorvachilik xo‘jaligidagi ayrim qurol-buyumlar ham muqaddas deb kelingan. Jumladan, qo‘zi, toychoq va bo‘taloqlarni bog‘lash moslamalari – bo‘yinturuqlar, otni ushslash uchun xalqa xo‘jayin tomonidan begonaga berilmagan, hattoki arqon va qurollarni ustidan ayollarni xatlab o‘tishi ta’qiqlangan.

Aytish joizki, qadimgi chorvadorlar oziq-ovqat manbayining asosiy qismi sigirdan olinadigan sutga bog‘liq bo‘lgan. Shuning uchun bu jonivorga nisbatan e’tiqodiy tasavvurlar ilk davrlardanoq shakllangan . Xo‘jalik hayvoni hisoblanuvchi sigirdan olinadigan mahsulotlar (sut, qatiq, ayron, qurt, sutli non va hk.lar) yil bo‘yi aholi ehtiyojini qondirib kelgan, bu kabi mahsulotlar chorvadorlarning farovon turmush kechirishini ta’milagan. Jumladan, aholi nazdida sut mahsuloti muqaddas hisoblangan. Azaldan ularda sut bilan bog‘liq turli qarg‘ishlar, qasamlar shakllanib kelgan (“Oq ursin”, “Oqni uvoliga uchrasin” va boshqalar). Ko‘pgina Sharq xalqlarida sut bilan bog‘liq ta’qiqlar uchrashi fikrimizning isbotidir. Jumladan, sutni ayniqlsa kun botganidan so‘ng, oyning yorug‘ida, yulduzli tunda uydan chiqarmaslik irimi hozirgacha saqlanib qolgan.

Ustrushona mozorqo‘rg‘onlarida qayd etilgan jonivorlar tasviri, suyak qoldiqlari yoki uning ramzi qo‘y bilan bog‘liqligi tadqiqotchi olimlarimiz tomonidan aniqlangan. Sag‘anoq mozorqo‘rg‘onidagi buyumlar yonidan ehtimol dafn marosimida iste’mol qilingan yegulik – qo‘yning bosh suyagi bo‘laklari topilgan. Sayxonsov mozorqo‘rg‘onida ham jasadlarning oyoq uchidagi qurbanlik burchagiga va bosh tomoniga qo‘y va it suyaklari qo‘yilgan . Tadqiqotchi olim J.G‘ofurov Jizzax viloyati Sh.Rashidov tumani “Yoyilma” mahallasida o‘rganilgan xumli qabrning ustki qismi (jasad suyaklari yuqorisi)ga qo‘yning bosh suyagi solib dafn etilganligini qayd etgan .

Yuqorida keltirilayotgan ma'lumotlar Ustrushonada Qovunchi madaniyatining ta'siri kulolchilik buyumlarida ham yaqqol aks etganligini ifodalaydi . Ushbu sopol idishlar bir dastali, ko'pchiligining tutqichi hayvon (qo'y yoki qo'zi) qiyofasida ishlangan va uning qarama-qarshi tomoniga jo'mrak yopishtirilgan. Bunday turdag'i ko'zalar sirtiga jigar rangda bezak berilgan, ba'zida rangli naqsh to'lqinsimon shaklda tasvirlangan.

Idishlarda aks etgan jonivorlar tasviri jumladan, qo'y bilan bog'liq diniy tasavvurlar arxeologlarimiz tomonidan shu paytgacha yaxshi o'rganilgan. Manbalarda Ustrushona hududlarini ham o'z tasarrufida saqlagan qang'uylarning zoroastrizim dinidagi xudolardan bo'lgan Farn ilohiga sig'inganligi ta'kidlanadi . Bu xudo, ya'ni Farn ilohasi qo'y ko'rinishida deb qabul qilingan. Farn keng ma'noda hukmdorlarning panohi va qo'riqlovchisi, shuningdek uy, oila va sog'liqni saqlovchi xudo sifatida ham e'zozlangan. Idishlarning tutqichi yoki og'iz qismida aks etgan qo'y, ilon va boshqa tasvirlar Farn ilohasining qo'riqlovchilik funksiyasi bilan bog'liq bo'lgan. Unga ko'ra idish tutqichi yoki og'iz qismida aks etgan qo'y va boshqa tasvirlar idishni har xil ins-jinslardan saqlagan.

Etnolog olim A.A.Ashirovning ta'kidlashicha, Farg'ona vodiysi xalqlari qo'yga qadimdan insonlarni balo-qazodan asrovchi ilohiy jonivor sifatida munosabatda bo'lishgan . O'zbek xonardonlarida qo'yning kalla suyagi yomon ko'zlardan asrash vositasi sifatida biror-bir daraxtga osib qo'yish odati hanuzgacha mavjud. Akademik A.A.Asqarovning fikricha, "Qovunchi" madaniyati kulolchiligida turli xil hayvonlarning, birinchi navbatda mayda shoxli hayvon suratlarini dasturxon idishlarida, bo'g'zi tor ko'za va xurmachalarning dastalarida aks etishida ham ramziy ma'no bor, ya'ni dasturxon idishlari va xurmachalar mazkur madaniyat aholisi tarkibida turkiy etnik qatlarning jamiyatda nufuzli mavqega ega ekanligiga ishora qiladi .

Ustrushona hududidagi yodgorliklarda burama shoxli qo'chqor haykalchalari, qo'y kallasi tasviri tushirilgan qozon tagliklari ko'p bor topilgan. Xususan, Jizzax shahridagi Pardaqultepa va Komilbobotepa yoldgorliklarini o'rganish asnosida burama shoxli qo'chqor haykalchalari, qo'y kallasi ramziy shakli tushirilgan 10 ga yaqin qozon tagliklari o'rganilgan. mazkur topilmalar mohiyatini ilmiy tahlil qilib o'rgangan arxeolog M.H.Pardayev ularni, "...ko'chmanchi chorvador xalqlar bilan aloqador"ligini ta'kidlaydi .

Xalqimizning bugungi kunda ham tabarruk ziyyaratgohlardan biri bo'lgan Zomin hududida joylashgan Qo'chqor ota ziyyaratgohi yoki uning qarshi tomonidagi tog'da joylashgan Qoplon ota ziyyaratgohlari va u yerdagi daraxtga osib qo'yilgan ulkan qo'chqor shoxlari qo'chqorni ilohiylashtirish bilan bog'liq qarashlar aholi orasida hozirgacha saqlanib qolganligini ko'rsatadi. O'lkamizning boshqa hududlarida bo'lgani kabi Jizzax vohasi aholisi orasida ham qabristonlarga, ziyyaratgohlarga va hatto uylarga ham qo'chqor shoxlari (qo'y yoki boshqa hayvonlarning kallas

suyagi)ni ilib qo'yish odati saqlanib qolgan. Bu shox va kallalarning tutgan vazifasi haqida barcha qishloq ahli orasida bir xil tushuncha mavjud bo'lib, unga ko'ra bu shoxlar o'sha joyni va unda yashovchilarni yomon ko'zdan va turli ofatlardan saqlar ekan .

Xulosa qilib aytganda, chorvachilik bilan bog'liq an'anaviy urf-odat va marosimlar uzoq o'tmishga borib taqalishi bilan birga diniy afsungarlik va magik xarakterdagi turli-tuman marosimlarga boyligi bilan ham ajralib turadi. Chorvachilik bilan bog'liq an'analar va marosimlar o'zininig mazmun-mohiyatiga ko'ra qadimiy totemizm, magiya, fetishizm, ajdodlar va hayvonlarni e'zozlash bilan bog'liq kultlari, bir so'z bilan aytganda, makon va zamon bilan bog'liq ilk diniy e'tiqodiy qarashlar bilan chambarchas bog'liq bo'lган.

Ustrushona mozorqo'rg'onlaridagi jasad yonida qayd qilingan it, bo'ri, qo'y, echki, ot, qoramol kabi hayvonlarning suyaklari va ular bilan bog'liq dafn udumlari voha xalqlarida totemistik qarashlar kuchli bo'lганligidan guvohlik beradi. Jizzax vohasi chorvadorlarining qadimdan shakllangan ma'naviy hayoti turli urf-odat va marosimlarga juda boy bo'lib, bu udum va marosimlarda umuminsoniy qadriyatlarning e'tirof etilgan eng sara ko'rinishlari namoyon bo'lган.

Foydalanimgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Ўзбекистон тарихини ўқитиш ва ўрганишнинг ягона концепцияси. – Тошкент, 1996. –Б.6.
2. Мажидов А.С., Бобоев Ш. Қадим тарихимизни ўрганишда қўлёзма манбаларнинг роли хусусида. // “Ватан тарихини ўрганишда архив ва ўлкашунослик материалларининг ўрни”. Илмий мақолалар тўплами. – Тошкент: “VNESHINVESTPROM”, 2020. –Б.123.
3. Эшов Б.Ж., Одилов А.А. Ўзбекистон тарихи. I жилд. –Тошкент: “Янги аср авлоди”, 2014. –Б.25.
4. Ҳайдаров X.X. Жиззах вилояти тарихи. –Тошкент: “Мехнат”, 1996. – В.11.
5. Аширов А., Атажанов Ш. Этнология. –Тошкент, 2006. –Б. 116.
6. Эшов Б.Ж., Одилов А.А. Ўзбекистон тарихи. I жилд. –Тошкент: “Янги аср авлоди”, 2014. –Б.24.
7. Нарбеков А.В. Диншунослик асослари. –Тошкент, 2007. –Б.30.
8. Аргынбаев Х. Народные обычаи и поверья казаков связанные со скотоводством // Хозяйственно-культурные традиции народов Средней Азии и Казахстана.–Москва, 1975.–С.194-195.
9. Шишкин В. Мазары в Зенги-Ата. Бартольду-Туркестанский друзья, ученики и почитатели. –Ташкент,1927. – С.163.
10. Тошбоев Ф.Э. Қадимги Уструшона чорвадорлари маданияти. –Тошкент: “FAN

VA TA”LIM”, 2022.–B.106.

11. Филанович М.М. Древняя и средневековая история Ташкента в археологических источниках. –Ташкент, 2010. – С.16.
12. Богомолов Г.И. Образ Гопатшаха в Чаче // ИМКУ №36. – Ташкент, 2008. – С.133-141.
13. Тошбоев Ф.Э. Қадимги Уструшона чорвадорлари маданияти. –Тошкент: “FAN VA TA”LIM”,2002.–B. 107.
14. Тошбоев Ф.Э., Валиев А.Х. Уструшона чорвадорларининг уй ҳайвонлари билан боғлиқ диний тасаввурлари // Тафаккур зиёси. – №1. –Жиззах, 2018.– Б.43,45.
15. Pardaev.M.X Ғофуров Ж.И. Ғарбий Уструшонада зардўштий қавмлар излари // Ўзбекистон Археологияси –№1.(2) –Самарқанд, 2012.85-886.
16. Буряков Ю.Ф. Генезис и этапы развития городской культуры Ташкентского оазиса. –Ташкент, 1982. – С.72, 74.
17. Литвинский Б.А. Кангюйско-сарматский фарн.– Душанбе, 1968. –С.6.
18. Аширов А.А. Ўзбек халқининг қадимий эътиқод ва маросимлари. –Тошкент, 2007. –150-1526.
19. Тошбоев Ф.Э. Қадимги Уструшона чорвадорлари маданияти. –Тошкент: “FAN VA TA’LIM”, 2022. – 976.
20. Пардаев М.Х. Қўй ва бўри руҳига сифинишнинг ўзаро боғлиқлиги ҳақида // ЎИФ (ОНУ). –Тошкент: “Фан”, 1995. –№1-2-3. –Б.42,43.
21. Тошбоев Ф.Э. Қадимги Уструшона чорвадорлари маданияти. – Тошкент: “FAN VA TA’LIM”, 2022. –Б.100.2017.